

UO'T: 37.034.3

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI NUTQIY FAOLIYATIDA INTEGRATIV YONDASHUVNI AHAMIYATI

Daminova Dilbar Melimurodovna

Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi

dilbardaminova9@gmail.com+998904111295

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini nutqiy faoliyatida integrativ yondashuvni ahamiyati, boshlang'ich ta'lim bosqichida integrativ yondashuvni qo'llash, o'quvchilarning umumiy rivojlanishiga katta hissa qo'shishi, boshlang'ich sinf o'quvchilarini nutqiy faoliyatda integrativ yondashuv orqali o'rgatish.

Аннотация. В статье рассматривается значение интегративного подхода в речевой деятельности учащихся начальной школы, применение интегративного подхода на этапе начального образования, его значительный вклад в общее развитие учащихся, а также обучение учащихся начальной школы с использованием интегративного подхода в речевой деятельности.

Abstract. the article discusses the importance of an integrative approach in the speech activity of primary school students, the use of an integrative approach at the primary education stage, its significant contribution to the overall development of students, teaching primary school students through an integrative approach in speech activity.

Kalit so'zlar: maktab, oila, mahalla, integratsiya, kuzatish, eshitish, boshqarish, nutqiy rivojlanish, pedagogik metodlar, boshlang'ich sinf, o'quvchilar, integratsion yondashuv.

Ключевые слова: школа, семья, район, интеграция, наблюдение, слух, управление, развитие речи, педагогические методы, начальная школа, ученики, интегративный подход.

Keywords: school, family, neighborhood, integration, observation, hearing, management, speech development, pedagogical methods, primary school, students, integrative approach.

Kirish. Hozirgi kunda barcha jabhalarda bo'lgani kabi ta'lim sohasida ham ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limni tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktabrdagi 6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 11-maydagi PF-134-son "2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, qarorlari xalq ta'limini yanada rivojlantirishga qaratilgan bir qator vazifalar belgilab berildi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini nutqiy faoliyatida integrativ yondashuvni ahamiyati mavzusi hozirgi kunda ta'lim sohasida juda dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida integrativ yondashuvni qo'llash, o'quvchilarning umumiy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Yoshning ta'limdagi o'ziga xosligi shundaki boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun nutq faoliyati juda muhimdir. Ularning fikr, so'z, til va muloqot madaniyatini shakllantirishni boshlash, o'z ifodasini aniq va to'g'ri ifoda eta olishni o'rgatish ayniqsa muhim. Integrativ yondashuv bu jarayonni yanada samarali va boy qiladi. Multidisipliner yondashuvning ahamiyati nutq faoliyatining faqat tilshunoslik nuqtayi nazaridan emas, balki boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan holda o'rgatilishi, o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini kengaytiradi va turli fanlar o'rtasidagi bog'liqlikni tushunishga yordam beradi. Bu yondashuv, o'quvchilarga har bir fanni o'zaro bog'lab, yaxlit ravishda o'rganish imkoniyatini yaratadi. Kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda integrativ yondashuv orqali

o'quvchilar o'quv jarayonida nafaqat ma'lumotni qabul qilish, balki uni tahlil qilish, taqqoslash va o'z fikrlarini ifodalashga o'rganadilar. Bu esa ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

O'quvchilarning ijtimoiy va emosional rivojlanishi nutq faoliyati orqali o'quvchilarning muloqot ko'nikmalari va ijtimoiy aloqalari rivojlanadi. Integrativ yondashuv, ular o'rtasida o'zaro hurmat, hamkorlik va empatiya kabi muhim ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradi. Tezkor va samarali o'qitish metodlari boshlang'ich sinf o'quvchilariga turli fanlar bo'yicha bir vaqtning o'zida ma'lumot berish orqali ularga ko'proq imkoniyatlar yaratish, o'quvchilarning diqqatini va qiziqishini saqlab qolish, shuningdek, o'quvchilarning ma'lumotlarni mustahkamlashga yordam beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini nutqiy faoliyatda integrativ yondashuv orqali o'rgatish, ularning umumiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bunday yondashuv o'quvchilarning o'rganish samaradorligini oshiradi va kelajakda ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli bo'lishlariga yordam beradi.

Metodlar va o'rganilish darajasi: Boshlang'ich sinf o'quvchilarini nutqiy faoliyatida integrativ yondashuvni amalga oshirish, o'quv jarayonining samaradorligini oshirish va nutqni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Integrativ yondashuv o'quvchilarning nutqiy faoliyatini faqat til bilimlari bilan cheklamay, balki ularni boshqa fanlar, madaniyat, ijtimoiy va emosional jihatlar bilan birlashtirib o'rgatishni anglatadi. Bu yondashuv o'quvchilarning umumiy rivojlanishiga xizmat qiladi, ularning fikrlash, muloqot qilish va tahlil qilish qobiliyatlarini oshiradi tinglash va gapirish mashqlari, shuningdek, o'quvchilarning tilni turli holatlarda ishlatishini ta'minlovchi interaktiv metodlar yozish.

2. Kognitiv metodlar: Bu metodlar orqali o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan faoliyatlar amalga oshiriladi. Masalan, o'quvchilarni tushunish, tahlil qilish va sintez qilishga o'rgatish uchun turli mashqlar va topshiriqlarni bajarish.

3. Kreativ yondashuv: Nutqiy faoliyatni rivojlantirishda ijodiy metodlar (masalan, hikoyalar yaratish, rolli o'yinlar, dramatizatsiyalar) orqali o'quvchilarning tilga nisbatan ijodiy munosabatini shakllantirish.

4. O'quv materiallarining integratsiyasi: Fanni o'qitishda turli fanlar (matematika, tabiiy fanlar, san'at) bilan bog'lanish orqali nutqiy faoliyatni rivojlantirish.

5. Ko'nikmalarni integratsiya qilish: O'quvchilarni nafaqat til o'rganishga, balki o'rganilayotgan mavzu doirasidagi boshqa ko'nikmalarni ham rivojlantirishga yo'naltiradi. Masalan, ekologiya haqida gapirganda, ekologik muammolarni va ularning tili haqida gapirish orqali bilimlarni birlashtirish.

O'rganilish darajasi. Integrativ yondashuvni o'rganish darajasi o'quvchilarni lingvistik, ijtimoiy va madaniy jihatlardan birlashtirib o'rgatish bilan bog'liq bo'ladi. O'quvchilar boshlang'ich sinfda tilni o'rganish va nutqiy faoliyatda ishtirok yetishda asosiy ko'nikmalarni egallaydi. O'quv jarayonida barcha metodlarni kompleks ravishda qo'llash orqali o'quvchilar quyidagi bosqichlardan o'tadilar. Boshlang'ich darajasi o'quvchilar tilning asosiy elementlarini o'rganadilar va oddiy nutqiy faoliyatlarni amalga oshiradilar, o'rta daraja o'quvchilar murakkabroq gapirish va tinglash ko'nikmalarini rivojlantiradilar, turli mavzularda o'z fikrlarini ifodalashga o'rganadilar, yuqori daraja o'quvchilar integratsiyalangan mavzularda fikrlarini tahlil qilish, baholash va izoh berish kabi yuqori darajadagi nutqiy faoliyatni amalga oshirishga o'rganadilar. Integrativ yondashuv o'quvchilarning nutqiy faoliyatini samarali rivojlantirishga yordam beradi, chunki ularning bilimlari bir-biri bilan bog'lanib, o'rganish jarayoni chuqurlashadi. Pedagogik tajribalardan ma'lum bo'lishicha, til ta'limidagi to'rtta muhim amallardan — tinglash, so'zlash, o'qish va mashg'ulotlarni uyg'unlashtirib olib borilishi mumkin. Boshlang'ich sinflarda olib boriladigan ta'lim ishlarining asosiy yo'nalishlaridan biri o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish, bog'lanishli nutq ko'nikmasiga ega

bo'lish hamda ularda muloqot madaniyatini kuzatishdir. Ma'lumki, nutq — bu inson faoliyatining turi bo'lib, til ishlab (so'z, so'z birikmasi, gap) orqali tafakkurni ishga solishdir. Nutq o'zaro muloqot va xabar almashishni his-tuyg'ulari bilan fikrlash va boshqalar bilan nutq orqali ifodalash va boshqalar ta'sir ko'rsatishni amalga oshiradi. Ilmiy-metomatik adabiyotlarda fikrni ifodalash qobiliyatini yaratishga, tugallangan mavzuni ifodalaydi, mantiqiy va grammatik vositalar asosida, mustaqil, to'liq va o'zaro bog'langan nutqni orqali mulqatga kirishishni ta'minlaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini nutqiy faoliyatida integrativ yondashuvni ahamiyati mavzusining dolzarbligi ayniqsa hozirgi ta'lim tizimida integratsiyalashgan, kompleks yondashuvlarni tatbiq yetishga bo'lgan ehtiyojning ortishi bilan bog'liqdir.

Nutq faoliyatining fanlararo bog'liqligi integrativ yondashuv nutqiy faoliyatni faqat bir fan bilan cheklamagan holda, uni boshqa fanlar matematika, tabiiy fan, san'at va boshqalar bilan bog'lab o'rgatishni o'z ichiga oladi. Bu esa o'quvchilarning turli fanlarga bo'lgan qiziqishini oshiradi, bilimlarni yanada chuqurroq va yaxlit ravishda o'zlashtirishga yordam beradi. Kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda integrativ yondashuv orqali boshlang'ich sinf o'quvchilari turli fanlar bo'yicha olingan bilimlarni bir-biri bilan bog'lashni o'rganadilar. Bu jarayon ularning tanqidiy va kreativ fikrlash qobiliyatlarini oshiradi, ular mustaqil ravishda muammolarni hal qilishga va yangi g'oyalarni ilgari surishga o'rganadilar. O'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi nutqiy faoliyat o'quvchilarning o'zini ifodalash, hissiy va ijtimoiy o'sishida muhim rol o'ynaydi. Integrativ yondashuv orqali o'quvchilar o'zaro hamkorlikda ishlash, bir-birini tinglash va hurmat qilish kabi ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradilar. Bu, o'z navbatida, ularning shaxsiy rivojlanishiga yordam beradi. O'qitish jarayonida samaradorlikni oshirish integrativ yondashuv, o'qituvchilarga o'quvchilarga nutqiy faoliyatni samarali o'rgatish uchun turli metod va vositalardan foydalanish imkoniyatini beradi.

Tadqiqot natijalari. Integrativ yondashuv o'quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning so'z boyligini oshirish, fikrni aniq va mantiqiy ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Mashg'ulotlarda matematika, atrof-muhit, san'at va boshqa fanlar bilan bog'liq mavzulardan foydalanilganida o'quvchilarning faolligi sezilarli oshdi.

Multidiscipliner integratsiya o'quvchilarning tushunish darajasini chuqurlashtiradi. Har xil fanlar bilan bog'lab o'rgatilgan nutqiy mashg'ulotlar o'quvchilarning mavzuni yanada kengroq kontekstda tushunishiga yordam berdi. Ayniqsa, real hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar (masalan, "tabiat haqida suhbat", "oila haqida hikoya") o'quvchilarning tahliliy fikrlashini faollashtirdi. **Kreativ va tanqidiy fikrlash sezilarli darajada rivojlandi.** Tadqiqot davomida hikoya tuzish, rolli o'yinlar, matn tahlili va ijodiy yozuv topshiriqlari orqali o'quvchilarda kreativ va tanqidiy fikrlash malakalari sezilarli darajada oshdi. O'quvchilar matnlarni nafaqat o'qish, balki o'z fikrlarini bildirish, muammoga yechim taklif qilish, voqealarni baholash kabi yuqori darajadagi ko'nikmalarni namoyon eta boshladilar. **Ijtimoiy va emosional rivojlanish ko'rsatkichlari yaxshilandi.** Hamkorlikda ishlash, guruh faoliyatlar, muloqotga kirishish va fikr almashish asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni mustahkamladi. Tadqiqot davomida o'quvchilarning o'zaro hurmat, tinglay olish, fikr bildirishda muloyimlik kabi ko'nikmalarida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. **Nutqiy faoliyatda bosqichma-bosqich rivojlanish ta'minlandi.**

Integrativ yondashuv asosida tuzilgan dastur orqali o'quvchilarning nutqiy rivojlanish bosqichlari aniq ko'zga tashlandi.

1. **Boshlang'ich bosqichda** oddiy gap tuzish va so'z boyligini oshirish.
2. **O'rta bosqichda** mavzu asosida gap tuzish, suhbat qurish.

3. **Yuqori bosqichda** matn asosida mulohaza yuritish, o'z fikrini asoslab berish, taqqoslash va baholash ko'nikmalari shakllandi.

O'quvchilarning o'rganishga bo'lgan motivatsiyasi kuchaydi fanlararo integratsiya va qiziqarli mashg'ulotlar o'quvchilarda o'rganishga nisbatan ijobiy munosabat uyg'otdi. Mashg'ulotlar yakunida o'tkazilgan so'rovnoma va intervyular natijasida, ko'pchilik o'quvchilar mashg'ulotlarning "qiziqarli", "foydali" va "ijodiy" ekanligini ta'kidlashdi. Tadqiqot natijalari asosida aytish mumkinki, **integrativ yondashuvni boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy faoliyatiga tatbiq yetish** ularning umumiy intellektual, lingvistik va shaxsiy rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Bu yondashuv o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga, fikr almashishga va turli ijtimoiy vaziyatlarda muloqotga kirisha olishga tayyorlaydi.

Tahlil va natijalar. Boshlang'ich sinf o'quvchilari maktabga kelishdan oldin oila davrasida, maktabgacha ta'lim tashkilotida bo'ladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining oila bilan olib boradigan ish mazmuniga quyidagilar kiradi: bola tarbiyasi; oilani mustahkamlash; onalik va bolalikni himoya qilish bo'yicha maktabgacha ta'lim tashkilotida amalga oshirilayotgan ishlarning mazmuni bilan tanishtirib borish; ota-onalarga o'z farzandlarining tarbiyasi uchun davlat va jamiyat oldida javobgar ekanliklarini tushuntirib borish; ota-onalarni bola tarbiyasi uchun zarur bo'lgan bilim, malakalardan xabardor qilish; bola tarbiyasida oila bilan hamjihatlik; bolani to'g'ri tarbiyalashni nazorat qilib borish; oila tarbiyasining eng yaxshi namunalarini o'rganish va ommalashtirish. Bola maktabgacha ta'lim tashkilotida egalagan eng yaxshi fazilatlarni oila sharoitida davom ettirib, oilada egalagan eng yaxshi fazilatlarni esa maktabgacha ta'lim tashkilotida qo'lansa, istalgan ijobiy natijalarga erishish mumkin. Tarbiyachilar oila tarbiyasiga doir tajribalaridagi ijobiy ishlarni ko'ribgina qolmay, balki uni qo'llab quvvatlash va shu asosida ota-onalar e'tiborini bola tarbiyasida hali hal etilmagan vazifalarga qaratishlari lozim. Yuqoridagi ishlarni rejalashtirish, tashkil yetish va ularga rahbarlik qilishda mudira javobgar shaxs hisoblanadi.

Xulosa. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun nutqiy faoliyat, ularning so'zlashuv va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishda markaziy o'rinni egallaydi. Integrativ yondashuv bu jarayonda o'quvchilarning umumiy rivojlanishiga ko'maklashadi. Mavzuning dolzarbligi quyidagi asosiy omillar bilan izohlanadi. O'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqiy faoliyatni o'rganish jarayonida o'z fikrlarini aniq, to'g'ri va tushunarli ifodalashni o'rganadilar. Integrativ yondashuv yordamida turli fanlar bo'yicha o'rgatiladigan nutqiy faoliyat o'quvchilarning kommunikativ qobiliyatlarini yaxshilaydi. Bu, o'z navbatida, ularning kelajakdagi ijtimoiy hayoti va kasbiy faoliyatida muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarning qiziqishini saqlab qolishga, ularning o'rganish jarayoniga faolligini oshirishga yordam beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini nutqiy faoliyatda integrativ yondashuv orqali o'rgatish, nafaqat o'quvchilarning so'zlashuv va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishga, balki ularning keng bilim doirasini shakllantirishga, kreativ va tanqidiy fikrlashni oshirishga, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishiga ham katta hissa qo'shadi. Shu sababli, bu mavzu ta'lim tizimida ayniqsa dolzarb hisoblanadi.

ABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz". Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". Toshkent: O'zbekiston. NMIU, 2016.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga Murojaatnomasi.- Toshkent, 2020-yil 24-yanvar.

-
4. Axmedova G.M. O'zbek tili darslarida o'quvchilar nutqini yasama so'zlar bilan boyitishning metodik asoslari: ped.fan.nom. ...diss. – Toshkent, 2007.
 5. Shabbazova Dilfuza Ruziqulovna. ONA TILI O'QITISH METODIKASI. Toshkent "METODIST NASHRIYOTI" 2023
 6. E. Begmatov, M. Tursunqulov O'zbek nutqi madaniyati asoslari. Toshkent: O'qituvchi 2015
 7. T. Almamatov, Q. M. Yadgarov, Sh. Almamatov., O'zbek tilini o'qitishda innovatsion , pedagogik texnologiyalardan foydalanish (Metodik qo'llanma). -2013.
Xudoyberganova M. Bayonlar to'plami. - T.: O'qituvchi 1992.-78 b
 8. Yusupova M. O'qish va yozuv darslari samaradorligini oshirish. -T.: O'qituvchi, 2008.-67 b
 9. Roziqova O. va boshqalar. Ona tili didaktikasi. T.: Yangiasr avlodi, 2005.
 10. To'xliyev B. va boshqalar. O'zbek tili o'qitish metodikasi. - T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.
 11. Abdullayev. Y. Eski maktabda xat-savod o'rgatish. - T.: "O'qituvchi", 1960.12.
Qosimova. K. Boshlang'ich sinflarda imlosi qiyin so'zlarni o'rgatish. -T.: 1964.
 13. PIRLS 2021 baholash asosi. Ina V.S. Mullis, Maykl O. Martin. Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA), TIMSS & PIRLS xalqaro tadqiqot markazi, Boston kolleji Lynch ta'lim maktabi. 2019.
 14. PIRLS 2011 baholash asosi. Ina V.S. Mullis, Maykl O. Martin, Enn M. Kennedi, Ketil L. Trong, Marian Sainsberi. Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA), Xalqaro o'rganish markazi, Lynch ta'lim maktabi, Boston kolleji. Kashtan tepaligi. 2009 yil.
 15. Daminova Dilbar. JAHON FANIDA MATEMATIK SAAVODNI RIVOJLANTIRISH MASALLARI. GALAXY INTERNATIONAL INTERNATIONAL DISPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915 jild. 11, 03-son, mart. (2023). 307-311 b
 16. Muxtorova L.A. Boshlang'ich yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish yo'llari// AJMR:Asian Journal of Multimensional Research Journal. 10-jild, 4-son, aprel, 2021-yil. 648-652-bet. (Ta'sir faktori 7,699).
 17. Мухтарова, Л. А. (2017). BOSHLANG'ICH SINFLARDA RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI. Апробация, (2), 93-94.
 18. Daminova Dilbar Melimurodovna, & Muxtorova Lobar Abdimannabovna. (2023). BOSHLANGANCH 5 I SINF O'QUVCHILARINING MATEMATIK SAAVOTLILIGINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI. Ochiq kirish ombori, 4(3), 971-976.
 19. Daminova Dilbar Melimurodovna, & Muxtorova Lobar Abdimannabovna. (2023). JAHON FANIDA MATEMATIK SAAVODNI RIVOJLANTIRISH MASALLARI. Galaxy xalqaro fanlararo tadqiqot jurnali, 11 (3), 307-311.